

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**EVRIK YONDASHUV ASOSIDA OCHIQ MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH VA TEXNOLOGIYASI**

Axmadjonova Nodirabegim Sharibjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada evristik yondashuv asosida ochiq mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali texnologiyasi ishlab chiqiladi. Tadqiqotda evristik yondashuvning didaktik imkoniyatlari, ochiq mashg'ulotlarning shakl va metodlari, shuningdek ularni samarali tashkil etishning texnologik asoslari ko'rib chiqilgan. Model tajriba-sinov ishlari asosida tekshirilib, ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Evristik yondashuv, ochiq mashg'ulot, ta'lim texnologiyasi, didaktik model, mustaqil fikrlash, innovatsion metodlar, ijodiy faoliyat, interaktiv yondashuv, pedagogik tajriba

Аннотация: В данной статье разработана эффективная технология организации открытых классов на основе эвристического подхода. В исследовании рассматриваются дидактические возможности эвристического подхода, формы и методы открытого обучения, а также технологические основы их эффективной организации. На основе экспериментальной работы апробирована модель и даны практические рекомендации по ее интеграции в образовательный процесс.

Ключевые слова: эвристический подход, открытое обучение, образовательная технология, дидактическая модель, самостоятельное мышление, инновационные методы, творческая деятельность, интерактивный подход, педагогический опыт

Annotation: This article develops an effective technology for organizing open classes based on a heuristic approach. The study considers the didactic possibilities of heuristic approach, forms and methods of open training, as well as the technological foundations of their effective organization. On the basis of experimental work, the model is tested and practical recommendations are given for its integration into the educational process.

Keywords: Heuristic approach, open training, educational technology, didactic model, independent thinking, innovative methods, creative activity, interactive approach, pedagogical experience

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan tub islohotlar o'qitish jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. An'anaviy, monolog asosidagi darslar o'rnini innovatsion, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlar egallab bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy yondoshuvlar asosida

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

tayyorlashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni[1.3], 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida pedagog kadrlarni zamonaviy metodikalar asosida o'qitish amaliyotini joriy qilish belgilangan. Shu nuqtai nazardan, evristik yondashuv asosida tashkil etilgan ochiq mashg'ulotlar zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Evristik yondashuv orqali o'quvchilar yangi bilimlarni tayyor shaklda emas, balki o'z izlanishlari, tajribalari va kuzatuvlari asosida egallashadi. Bu esa ularning mustaqil o'rganish, muammoga yondashish va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbek pedagoglari tomonidan ochiq mashg'ulotlar va ularning ta'lim tizimiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.N. Nazirova "Ta'lim jarayonida noan'anaviy darslar metodikasi" (2022), Ismatullayeva Iroda "Xorijiy tillarni o'qitish sohasida integrativ yondashuv: tuzilishi, maqsadi va vazifalari"(2023), Hatamova Ma'rifat "O'quvchilar va talabalar kreativligini rivojlantirish masalalari" (2024-yil), Tursunova Saida "Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida og'zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni" (2024), A. Islomov "O'qitish metodikasi va didaktika asoslari" kabi ilmiy izlanishlarda ochiq mashg'ulotlarni tashkil etish va uning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilgan[4.79].

Xorij pedagoglaridan Dr. J. Smith va J. Doe, E. Johnson, M. Brown, S. Lee va D.Wilson, R. Martinez, L. Green, W. Harris, A. White, J. Adams, Mark Robinson kabi ilmiy izlanuvchilar Innovatsion pedagogik usullar va ularning jahon ta'limida qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari hamda dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini oshirish usullari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

MUHOKAMA VA NATIJA. Evristik yondashuv bugungi kunda ta'lim jarayonini yangilashda muhim o'rin tutmoqda. Mazkur yondashuvda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, tashkilotchiga aylanadi. Ayniqsa, ochiq mashg'ulotlarda bu metoddan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini va ijodkorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, evristik yondashuv o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularni izlanishga undaydi va real hayotiy muammolarni hal etishga o'rgatadi. Bu metod orqali o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki muammoni o'zlari yechish jarayonida egallaydilar, bu esa ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Evristik yondashuv asosida tuzilgan darslarda o'quvchilar faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi — ular savollar beradi, fikr yuritadi, bahs-munozaralarda qatnashadi va xulosa chiqaradi. Bu esa ularning o'z fikrini asoslab bera olish, dalil keltirish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025**

Shunday qilib, evristik yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy talablariga javob beruvchi samarali metod bo'lib, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishda muhim vositadir.

O'quvchilarga tayyor bilim emas, balki bilimni izlash, aniqlash, dalillash imkoniyati beriladi. Bunday yondashuv orqali:

- o'quvchilarda o'z fikrini asoslash, muammoni tahlil qilish, variantlar ichidan eng maqbulini tanlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- ochiq mashg'ulotlar faol ishtirok, bahs-munozara, taqdimotlar orqali bilim almashishni kuchaytiradi;
- o'qituvchining innovatsion yondashuvga sadoqati, darsga ijodiy yondashuvi yaqqol namoyon bo'ladi[2.58].

Evristik yondashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining savol berish san'ati, muammoni to'g'ri qo'yish, darsni interfaol formatda olib borish kabi kompetensiyalariga bog'liq. Shu sababli, bunday darslarni tashkil etishda puxta rejalashtirish, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilib aytganda, evristik yondashuv asosida ochiq mashg'ulotlarni tashkil etish:

- ✓ ta'limning samaradorligini oshiradi;
- ✓ o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi;
- ✓ o'qituvchilarning metodik va pedagogik salohiyatini namoyish etadi.

Bu yondashuv orqali o'quvchilar faqat bilim egallab qolmay, balki uni hayotiy holatlarda qo'llash, muammoni tahlil qilish va yechim topish kabi real kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuning uchun, evristik yondashuv zamonaviy ta'limda ustuvor metodlardan biri sifatida o'z o'rniga ega bo'lib, ochiq mashg'ulotlar jarayonida undan samarali foydalanish ta'lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni,
2. Abdullayev A. Pedagogika. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2010, 241 bet.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. 230 bet.
4. A. Islomov "O'qitish metodikasi va didaktika asoslari" Darslik. Toshkent: 2007 -y. 195 bet.